

**“HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ
“ENERGOSAVDO” FILIALI
bo‘linmasi**

TUMANI BO‘LIMI

**Elektr energiyasini yakuniy yuridik va yuridik
maqomga ega bo‘lмаган ISTE’MOLCHILARга
sotish namunaviy**

SH A R T N O M A S I

Shartnoma raqami _____

• **Iste’molchi nomi** _____

Iste’molchi uyali telefon raqamlari _____

**Elektr energiyasini yakuniy yuridik va yuridik maqomga ega bo‘lмаган исте’molchilarga
sotish**

SHARTNOMASI

202____-yil “_____” _____-son _____
(*tuman nomi*)

“Energosavdo” filiali _____ bo‘linmasining 202____-yil “_____” _____
da ro‘yxatdan o’tkazilgan _____-son Bosh ishonchnoma asosida faoliyat
yurituvchi _____ rahbari _____

(*tuman bo`limi nomi*) (F.I.SH.)

(keyingi o’rinlarda – “**Sotuvchi korxona**”) bir tomondan hamda asosida faoliyat yurituvchi
| _____ rahbari _____
(*iste’molchining nomi*) (*iste’molchi rahbarining F.I.SH.*)

(keyingi o’rinlarda – “**Iste’molchi**”) ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to’g’risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1. Ushbu elektr energiyasini yakuniy yuridik va yuridik maqomga ega bo‘lmagan iste’molchilarga sotish shartnomasiga (keyingi o’rinlarda – Shartnoma) muvofiq, Elektr ta’minot korxonasi (keyingi o’rinlarda – **Ta’minotchi korxona**) iste’molchiga elektr energiyasini ulangan elektr tarmoqlari orqali yetkazib berish, “**Sotuvchi korxona**” yetkazib berilgan elektr energiyasini hisobini yuritish, “**Iste’molchi**” iste’mol qilingan energiya uchun o’z vaqtida haq to’lash majburiyatini oladi.

II. YETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI HISOBGA OLİSH

2.1. Elektr energiya iste’molining yillik shartnomaviy hajmi:

Aktiv _____ kVt*s. reaktiv _____ kVar*s.

2.2. Yetkazib beriladigan energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi
so’mni, tarif bo’yich _____ tashkil etadi.

tarif turi: tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki aholiga tenglashtirilgan (keraklisi yozilsin)

Budjet tashkilotlari uchun: Budjet mablag`lari hisobidan _____ so’mni, Budjetdan tashqari mablag`lari hisobidan _____ so’mni tashkil qiladi.

2.3. “Iste’molchi”ga yetkazib beriladigan elektr energiyasining oylar kesimidagi yillik hajmi ushbu shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

Ta’minotchi korxona elektr ta’minotida tanqislik yuzaga kelgan taqdirda, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-dekabrdagi 277-son qarorida qayd etilgan, strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega iste’molchilarga zarur bo’lgan elektr energiyasining minimal hajmini, shu jumladan choraklar va oylar bo’yicha iste’molchi bilan belgilangan tartibda oldindan kelishilgan holda yetkazib berilishini ta’minlashi shart (7-ilova).

2.4. “Iste’molchi” tomonidan iste’mol qilingan elektr energiyasining haq to’lanishi lozim bo’lgan hajmi ushbu shartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan hisobga olish asboblarining ko’rsatkichlari asosida aniqlanadi, agar hisoblagich o’lchov transformatorlari (tok, kuchlanish) orqali ulangan bo’lsa, amalda iste’mol qilingan elektr energiyasi miqdori ushbu o’lchov transformator transformatsiya koeffitsiyenti inobatga olingan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchilarining elektr energiyasi hisoblagichlari, o'lchash vositalari, o'lchov transformatorlari, EHNAT tizimi qurilmalari, shuningdek, ularni o'rnatish uchun zarur bo'lgan boshqa vositalar iste'molchilarining mablag'lari hisobiga sotib olinadi va o'rnatiladi, Sotuvchi korxona mas'ul xodimi tomonidan bepul plombalanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Hisobga olish tizimi iste'molchining aybi bilan buzilgan taqdirda (o'lchov transformatorlarining ulanish sxemasi buzilganda yoki uning o'zi yoki yorlig'i ruxsatsiz almashtirilganda, shuningdek, hisobga olinayotgan elektr energiyasi sarfini kamaytirish maqsadida hisoblagichni yoki uning plombasi buzilganda, unga tashqaridan ta'sir ko'rsatilganda), ushbu tizim qurilmalarini almashtirish, ta'mirlash, qiyoslovdan o'tkazish va o'rnatish ishlari iste'molchi hisobidan ularning qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'langan holda, Sotuvchi korxona tomonidan amalga oshiriladi.

Iste'molchining aybi tasdiqlanmasa, Sotuvchi korxona mablag'i evaziga hisoblagich, modul qurilmasi ta'mirlanadi yoki yangisiga almashtiriladi.

Agar hisoblagichlar, o'lchov transformatorlari, ikkilamchi zanjirlar ko'p qavatl uylar zinapoya maydonchalarida yoki yakka tartibdagi uy-joylarning bino va inshootlari foydalanish hududidan tashqarida (transformator punkti, tayanch, tashqi fasad va boshqalar) yoki energetika obekti korxonasiga tegishli hududda (podstansiya, transformator punkti va boshqalar) o'rnatilgan bo'lib, hisoblagich o'lchov tizimiga tashqi aralashuvlar qilinishi natijasida iste'mol qilingan elektr energiyasi miqdori kamaytirilganligi hisoblagich yoki EHNAT bazasi xotira ma'lumotlari bilan o'z tasdig'ini topganda, iste'molchi javobgar hisoblanadi.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar bir stavkali, tabaqalashtirilgan yoki aholiga tenglashtirilgan tariflar va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Mayning uchun yagona elektr energetika tizimiga belgilangan tartibda ruxsat olib ulangan holda elektr energiyasidan foydalangan taqdirda, iste'molchilar iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun to'lovlar II tarif guruhi nisbatan ikki baravar o'suvchi koeffitsiyentga muvofiq to'lanadi. Iste'mol qilingan elektr energiyasining hisobi alohida hisoblagich o'rnatilgan holda yuritiladi;

Belgilangan tartibda ruxsat olmasdan mayning bilan shug'ullanuvchi shaxslarning yagona elektr energetika tizimiga ulanish holatlari aniqlanganda, ularga II tarif guruhi nisbatan amaldagi tarifga besh baravar o'suvchi koeffitsiyent qo'llaniladi.

Tashqi reklama va axborot obektlari konstruksiyalari (konstruksiysi, videoekranlar, elektron displeylar, media fasad va boshqa texnik vositalar), illyuminatsiyalar va lampalar shodasi uchun foydalanilgan elektr energiyasi II tarif guruhi asosan belgilangan tarifga uch baravar oshirilgan koeffitsiyentga muvofiq Tashqi reklama va axborot obektlari konstruksiyalari o'rnatilgan quvvati miqdorini 24 soat foydalanishi hisobidan yoki alohida hisoblagich o'rnatish orqali hisob-kitob amalga oshiriladi (budget va budgetdan mablag' oluvchi tashkilotlar bundan mustasno).

Tramvay hamda trolleybus transportlari tomonidan foydalaniladigan elektr energiyasi uchun HETK bilan hisob-kitoblar iste'molchilarining II tarif guruhi uchun belgilangan tarifning 50 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

3.2. Asosiy va zaxira elektr ta'minoti uchun ulangan quvvati yig'indisi 750 kVA va undan yuqori bo'lgan iste'molchilar elektr energiyasi uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitob qiladi (budget tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilarini uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek, Davlat budgetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno).

Zaxira elektr ta'minoti uchun o'rnatilgan quvvat elektr tarmoqdan ajratilganligi to'g'risida dalolatnomalar rasmiylashtirilib, ulangan quvvat 750 kVA dan kam bo'lganda iste'molchi tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitob qilinmaydi.

Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan iste'molchi uning elektr qurilmalari "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning ikki yoki undan ortiq alohida filiallari yoki elektr ta'minoti korxonalari tarmoqlaridan ta'minlanayotgan bo'lsa, ushbu iste'molchi o'zi joylashgan hudud bo`linmasi bilan bitta elektr ta'minoti shartnomasini tuzib, elektr energiyasi uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha haq to'laydi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 319-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari"ning (keyingi o'rnlarda – "Qoidalari") 103-bandi bundan mustasno. (Bitta elektr ta'minoti korxonasi tarmog'iga ulangan iste'molchining sexlari yoki obektlari alohida-alohida har xil hududda yoki yondosh (qo'shni) hududda joylashgan bo'lib, bitta taqsimlovchi umumiy tarmoqqa ega bo'lmasa, bunda bu sexlar yoki boshqa alohida obektlar bo'yicha hisob-kitoblar tegishli tarif guruhlari bo'yicha amalga oshiriladi).

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:

yarim tig'iz davr – sutkaning yorug' vaqtida (soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ gacha) – belgilangan tarif bo'yicha,

tig'iz davr – eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6⁰⁰ dan 9⁰⁰ gacha, kechki eng katta miqdor soat 17⁰⁰ dan 22⁰⁰ gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffitsiyentni qo'llash orqali;

tungi davr – sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarda: 22⁰⁰ dan 24⁰⁰ gacha va 00⁰⁰ dan 6⁰⁰ gacha) – belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koeffitsiyentni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II-tarif guruhi bir stavkali iste'molchilarga qo'llaniladigan tarifga to'g'ri keladi.

Tabaqalashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan iste'molchiga nisbatan elektr energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun chegirmalar (ustamalar) reaktiv energiyani hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi hamda tegishli ravishda iste'mol qilingan (hosil qilgan) reaktiv energyaning 1 kVar soat uchun to'lov tarzida undiriladi.

Reaktiv energyaning shartnomaviy miqdori reaktiv energyaning iqtisodiy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Reaktiv energyaning har bir hisobot davri uchun iqtisodiy qiymati, shartnomada ko'rsatilgan va o'rnatilgan tartibda aniqlanadigan quvvat koeffitsiyentining optimal miqdori hisobga olinib, ushbu davr uchun aktiv energyaning shartnomadagi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Sotuvchi korxona tomonidan ulangan quvvati 50 kVt va undan ortiq bo'lgan I va II tarif guruhlari iste'molchilariga iste'mol qilingan reaktiv energiya uchun to'lovlar undiriladi, lekin budget va budgetdan mablag' oluvchi tashkilotlar, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilar uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek, Davlat budgetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari iste'mol qilingan reaktiv energiya hamda reaktiv energiya o'rni yetarlicha qoplanmaganligi hisobiga hosil bo'lgan quvvat koeffitsiyenti (cosφ) hisobotlarda ko'rsatib o'tiladi, lekin mablag' ko'rinishida hisoblanmaydi va to'lovlar undirilmaydi.

3.3. Bir necha tarif guruhlariga mansub iste'molchi bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruhiga alohida o'rnatilgan hisobga olish asboblari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

3.4. "Sotuvchi korxona" iste'molchi (yoki uning vakili) bilan birgalikda iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini har oyda yozib olishi va zarur bo'lganda elektr energiyasini hisobga olish asboblarini ularash sxemasini tekshirib ko'rishi vakolatiga ega.

"Iste'molchi" hisob-kitob davri tugagandan so'ng Sotuvchi korxona vakolatli vakili bilan birgalikda (mavjud vaziyatdan kelib chiqqan zarurat bo'lganda holda) yoki uning ishtiropkisiz hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini har oyda yozib oladi va ushbu shartnomaning

5-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo'yicha hisobot tuzadi va ushbu hisobotni "Sotuvchi korxona"ga belgilangan shakl bo'yicha o'z qo'li bilan, faksimil, elektron yoki pochta aloqasi orqali har oyning "5" sanasigacha taqdim etadi. Elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi taqdim etilgan hisobot yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi hajmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hisoblagich ko'rsatkichlari yozib olinmagan yoki elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi hisobot iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, Sotuvchi korxonasi tomonidan elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya) iste'molchining shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davr uchun elektr energiyasi iste'molining o'rtacha sutkalik amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Bunda, to'lovlarni tabaqlashtirilgan tarifda amalga oshiradigan "Iste'molchi"lar bo'yicha elektr energiya sarfi bo'yicha hisobotda foydalanilgan elektr energiya (aktiv va reaktiv) to'liq hajmidan tashqari tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlarda foydalanilgan elektr energiya hajmlari alovida ham ko'rsatilishi shart.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (EHNAT) joriy etilgan iste'molchilarda hisobga olish asboblaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

Hisoblagich ko'rsatkichlari nazorat tartibida HETK tomonidan yozib olingandan keyin amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi. Qayta hisob-kitob iste'molchi yoki uning vakili ishtirokida yoxud uning ishtirokisiz belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.5. Elektr energiyasi uchun amaldagi tariflar o'zgargan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi ularning kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin qarorni ommaviy axborot vositalarida hamda o'z rasmiy veb-saytlarida e'lon qiladi.

Bunda elektr energiyasi uchun tariflar o'zgargan sanadan qatiy nazar, elektr ta'minoti shartnomasi o'z kuchida qoladi va iste'molchi foydalanilgan elektr energiyasi uchun yangi tarif kuchga kirgan kundan boshlab xaq to'lashga majburdir.

Tarif o'zgargan taqdirda, iste'molchilar elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya)ning avans tariqasida to'langan hajmi keyingi bir oydan ortiq bo'limgan muddatda qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod etiladi.

Arifmetik xatoliklar, ko'rsatkichlarda noaniqliklar kuzatilganda, tariflarni noto'g'ri qo'llash tufayli paydo bo'ladigan kam va ortiqcha to'lovlardan tegishli tarif bo'yicha kVt*soatlarda "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari" da belgilangan mezonlarda qayta hisoblab chiqiladi

3.6. "Iste'molchi"ga elektr energiyasi yetkazib berish 100 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshiriladi, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari bundan mustasno. Bunda tadbirkorlik reytingida "yuqori" va "o'rta"toifadagi korxonalarga oldindan to'lov summasining 50 foizini hisobot oyining birinchi sanasigacha va qolgan qismini hisobot oyining o'n beshinchi sanasigacha bo'lib to'lashga ruxsat beriladi. Oylik iste'mol va oldindan to'lovni to'liq to'lamagan iste'molchilar, hisob-faktura yuborilgandan so'ng 5 kun muddatda to'lov to'liq amalga oshirilmagan taqdirda ogohlantirishsiz elektr manbaidan uziladi. Bundan tashqari, EHNAT ga ulanib, dastur tomonidan tarmoqdan ajratish imkoniyatiga ega bo'lgan iste'molchilarda oldindan to'lov miqdori tugashi bilan darhol dastur tomonidan avtomatik tarzda tarmoqdan ajratiladi.

3.7. "Sotuvchi korxona" "Iste'molchi"ning energiya sarfi to'g'risidagi hisoboti asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi va besh kun ichida to'lov amalga oshirish uchun hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini taqdim etadi. To'lov to'g'risida hisob-varag'i iste'molchini

xabardor qilish, ogohlantirish hisoblanadi. Reaktiv energiya tovar hisoblanmaydi va iste'mol hajmi dalolatnama ko'rinishida iste'molchiga elektron tarzda jo'natiladi.

"Iste'molchi" turli tarif guruuhlariga tegishli bo'lган bir nechta obektga ega bo'lsa, har bir tarif guruhi uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura taqdim etiladi.

"Sotuvchi korxona" tomonidan maxsus dasturiy mahsulot orqali hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini shakllantiriladi hamda iste'molchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, operator orqali rouming operatoriga yuboriladi.

3.8. Yuridik shaxslar tomonidan muqobil energiya manbalarini o'rnatib yoki rekuperatsiya usulida (elektropoyezdlar, elektromobillar orqali va boshqalar) elektr energiyasini tarmoqqa uzatilsa, hisobot oyi yakuni bo'yicha tarmoqqa uzatilgan elektr energiyasi qonunchilikda belgilangan tartibda (VMning 2019 yil 22 iyuldaggi 610-son, 2021 yil 31 avgustdaggi 555-son, 2023 yil 14 iyundagi 247-son qarorlari va boshqalar) mablag' qiymatidagi hajmi tarmoqdan iste'mol qilingan elektr energiyasi mablag' qiymatidagi hajmidan chegirib hisob-kitob qilinadi.

Iste'molchilar tomonidan tarmoqqa uzatilgan energiya miqdori iste'mol qilingan miqdordan ko'p bo'lsa, iste'molchi xohishiga (tanloviga) ko'ra ortiqcha qismi mablag' ko'rinishida iste'molchiga to'lab beriladi yoki keyingi davr iste'mol qilinishi kutilayotgan energiyasi uchun avans mablag' sifatida aks ettiriladi.

3.9. Hisobga olish pribori ushbu shartnomaga 3-ilovaga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansi bo'yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatatsiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmog'ining mansublik balansi chegarasida o'rnatilmaganda, chegaradan hisobga olish asbobi o'rnatilgan joygacha bo'lган uchastkada energiyaning texnologik sarflanish hajmi "Iste'molchi" bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi yoki taraflar kelishuvi asosida ushbu shartnomaga 4-ilovaga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi va elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansubligiga qarab hududiy elektr tarmoqlari korxonasining va iste'molchining hisobiga o'tkaziladi. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlarining ko'p qavatlari uyning ichki tarmoqdagagi yo'qotishlari bundan mustasno.

Bunda, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan, tabaqlashtirilgan tarifda to'lovlarini amalga oshiradigan "Iste'molchi" uchun energiyaning texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan elektr hajmining tegishli paytlariga to'lov haqini yozish uchun qo'shib boriladi. (*6-,7-ilovalarni reaktiv quvvatga ega va texnologik bronli iste'molchilar to'ldiradi*).

3.10. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha iste'molchining elektr tarmog'i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga uzatilganda, iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste'molchining elektr tarmog'iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

3.11. "Iste'molchi"ning elektr energiyasi haqini to'lash, reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun tarifga ustamalar, shuningdek, noqonuniy foydalanilgan elektr energiyasi qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

"Iste'molchi" shartnomada ko'rsatilgan elektr energiyasi hajmini to'liq iste'mol qilmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun "Iste'molchi"ga to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda yetkazib beriladigan korxonalar uchun esa 0,2 foiz miqdorida penya hisoblab yoziladi. Bunda penyaning umumiy miqdori, muddati o'tgan to'loving 50 foizidan oshmasligi lozim.

3.12. "Iste'molchi" va "Sotuvchi korxona" har oyda hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarning taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

3.13. "Iste'molchi"ni quyidagi hollarda elektr tarmoqlaridan uziladi:

hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan elektr energiyasi uchun qarzdorlik mavjud bo'lganda;

Sotuvchi korxonaning tegishli vakillariga hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini olishga yo'l qo'yilmaganda;

O'zenergoinspeskiya mutaxassislarini energiya resurslaridan foydalanish talablariga amal qilinishini tekshirish, shu jumladan, hisoblagichlarni ko'zdan kechirish uchun hududga kirishga qarshilik qilinganda,

texnik nosoz va avariya keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan qurilmalardan foydalanilganda;

O'zenergoinspeskiya mutaxassislari tomonidan qoidabuzarlik aniqlanib, ma'muriy bayonnomasi rasmiylashtirish uchun zarur hujjatlar taqdim etilmaganda;

hisobga olish priborlarini qasddan buzganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ularning ishslashiga tashqaridan aralashish hatti-harakatlar amalga oshirilganda;

elektr energiyasidan noqonuniy foydalanilgani, elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talontaroj qilish, jumladan "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari"da ko'rsatilgan qoda buzarliklarni sodir qilganda.

Sud organlarining qonuniy kuchga kirgan qarorlariga asosan.

Iste'molchilar va subiste'molchilar (ijarachilar), tadbirkorlik subektlari yoxud fuqarolar o'rtasida turli xil nizoli (kelishmovchilik) holatlarda (mol-mulk talashish, ijara narxi kelishmovchiligi, ekspluatatsion xarajatlar va shu kabilar), faqatgina sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlarida tarmoqdan ajratish (ulash) belgilangan bo`lsa, Sotuvchi korxona elektr tarmoqdan ajratish yoki qayta ulashni amalga oshiradi, boshqa holatlarda tarmoqdan ajratish (ulash) ni amalga oshirmaydi (qarzdorlik holatlari bundan mustasno).

3.14. Hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob, "Iste'molchi"ni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari"ni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

3.15. Iste'molchini debitor qarzdorlik uchun tarmoqdan uzib qoyish va ularni qaytadan ulashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Joyiga chiqqan holda elektr tarmoqlaridan uzib qoyilgan iste'molchilarni qayta ulashda iste'molchilardan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida to'lov undiriladi va ushbu mablag'lar Sotuvchi korxonaning hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Masofadan (EHNATdan) uzib qoyiladigan va ulanadigan iste'molchilarni tarmoqqa qayta ulash uchun to'lov undirilmaydi.

3.16. "Iste'molchi" elektr tarmoqlarining texnik holatini ta'minlash bo'yicha ekspluatatsiya xarajatlari uchun subiste'molchilar, iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida tuzilgan aloxida shartnomasi bo'yicha elektr energiyasining umumiy hajmidan olinadigan ulushga mutanosib ravishda xaq to'laydi.

Ekspluatatsiya xarajatlarini subiste'molchiga beriladigan elektr energiyasi tarifiga qo'shishga ruxsat etilmaydi.

3.17. “Iste’molchi” tomonidan iste’mol qilingan elektr energiyasi uchun to’lov tariflari quyidagi hollarda aholi uchun belgilangan tariflarga tenglashtiriladi:

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlari, elektr energiyasidan aholiga elektr energiyasi yetkazib berish maqsadida foydalanuvchi idoraviy va muninsipial uy-joy fondi, diniy tashkilotlar va elektr energiyasidan aholi ehtiyojlari uchun foydalanadigan lokal qozonxonalariga maishiy iste’molchilar uchun belgilangan bazaviy meyorda belgilangan tarif bo'yicha amalga oshiriladi.

Oilaviy korxonalar, oilaviy tadbirkorlar, Uy mehmonxonalar (xostellar), “Hunarmand” uyushmasi a’zolariga maishiy iste’molchilarga belgilangan tarif va shartlar qo’llaniladi.

Oilaviy korxona va hunarmandlarga ularning ixtiyoriga ko’ra energiya uchun to’lovlarni II yoki III tarif guruhi tariflari amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Bunda iste’molchilar hisobot oyi boshlangunga qadar elektr ta’minoti korxonasiga murojaat qilishlari zarur.

3.18. Elektr energiyasidan foydalanish qoidalaring buzilish holatlari aniqlanganda, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va (yoki) O’zenergoinspeksiya vakolatlari xodimlari tomonidan mazkur qoidalarga muvofiq elektr energiyasidan foydalanish qoidalari buzilganligi to’g’risida dalolatnomalar rasmiylashtiriladi. Zarurat bo’lganda, dalolatnomaga holat yuzasidan fotosuratlar va boshqa ashyoviy dalillar ilova qilinishi mumkin.

Dalolatnomalar vakolatlari xodimlari va iste’molchi tomonidan imzolanadi. Iste’molchi dalolatnomaga imzo qo’yishdan bosh tortgan taqdirda, ikki nafer xolis va (yoki) mahalla fuqarolar yig’ini mas’ul xodimlari jalb etilib, holat ularga ma’lum qilinadi hamda ularning dalolatnomaga imzo qo’yishi ta’minlangach, HETK xodimlari darhol mazkur iste’molchini elektr tarmog’idan uzib qo’yadi..

Hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori Sotuvchi korxona komissiya a’zolari tomonidan “Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari”da belgilangan mezonlar asosida hisoblanadi.

Iste’molchi Sotuvchi korxona tomonidan qo’yilgan qoidabuzarlikka (ayblovga) va hisob-kitobga norozi bo’lgan taqdirda belgilangan tartibda tegishli idoralarga hamda (Sotuvchi korxona joylashgan tumanlararo) sudga murojaat qilish huquqiga ega.

3.19. Sotuvchi korxona bilan shartnomalar tuzgan iste’molchi boshqa bir iste’molchining transformator punkti va elektr qurilmalari (asosiy iste’molchi) orqali ulangan taqdirda, ular o’rtasida ekspluatatsion xaratjatlar yoki boshqa sabablarga ko’ra o’zaro kelishmovchiliklar sodir bo’lganda, asosiy iste’molchi tomonidan istemolchini elektr tarmoqdan ajratilgan holatlari uchun ta’minotchi va sotuvchi korxonalar javobgar hisoblanmaydi.

3.20. Iste’molchi va subiste’molchi ichki elektr tarmog’ida sodir bo’lgan baxtsiz hodisalar (yong’in, avariya holatlari, inson o’limi bilan bog’liq hodisalar va hokazolar) uchun ta’minotchi va sotuvchi korxonalar javobgar hisoblanmaydi.

3.21. Hisob-kitob davrida iste’molchilar tomonidan (maishiy iste’molchilardan tashqari) elektr energiyasi iste’moli shartnomaviy miqdordan 20 foiz va undan ortishiga yo’l qo’yilgan taqdirda, mazkur miqdordan ortiq iste’mol qilingan elektr energiyasi uchun belgilangan tarifning 1,2 baravari miqdorida to’lov undiriladi.

3.22. Iste’molchilar reaktiv quvvatni yetarli darajada kompensatsiya qilmaganligi natijasida tarmoqlarda aktiv energiyaning qo’shimcha yo’qotishlari uchun qayta hisob-kitoblar amaldagi tarifga nisbatan uch baravar miqdorda hisoblanadi.

3.23. Iste’molchi va Sotuvchi korxonasi o’rtasidagi barcha hisob-kitoblar, nizolar va boshqa har xil munosabatlar O’zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 319-soni qarori bilan tasdiqlangan “Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari”ga asosan tartibga solinadi.

IV.ELEKTR ENERGIYASIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZISH, USHBU HOLATLARNI RASMIYLASHTIRISH VA HISOBGA OLINMAGAN ELEKTR ENERGIYASI HAJMINI HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

4.1. Quyidagi holatlar iste'molchilar tomonidan elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzish (noqonuniy foydalanish) holatlari deb hisoblanadi:

a) elektr ta'minoti shartnomasini tuzmasdan, elektr tarmog'iga o'zboshimchalik bilan ulanish.

Agar iste'molchi energiya ta'minoti korxonasi xodimi bilan til birkirib, ulanishda normativ-huquqiy hujjatlar talablarini bajarmasdan, shartnomasiz va hisoblagichi HETKnинг tegishli dasturiy ta'minoti bazalariga kiritilmasdan elektr tarmog'iga ulanib, elektr energiyasidan foydalangan taqdirda o'zboshimchalik bilan foydalanishga tenglashtiriladi (iste'molchining elektr tarmog'iga ulanish uchun tegishli hujjatlari mavjud bo'lib, lekin hisoblagich HETKnинг tegishli dasturiy ta'minoti bazasiga oydan-oyga o'tish jarayonida dasturga kirmay qolgan holatlar bundan mustasno);

b) hisoblagich ko'rsatkichlarini qasddan kamaytirish maqsadida unga tashqi ta'sir ko'rsatish;

v) hisoblagich va o'lchov transformatorlarining plombalarini o'zboshimchalik bilan buzish;

g) I tarif guruhi iste'molchilarida o'rnatilgan hisoblagichda sutkaning vaqt zonasini o'zboshimchalik bilan tashqi ta'sir ko'rsatish orqali o'zgartirish;

d) o'zboshimchalik bilan hisoblagich yoki o'lchov transformatorlarini almashtirish;

e) hisoblagichning ulanish sxemasini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish;

j) hisoblagich xotirasidagi ko'rsatkichlarni yo'q qilish maqsadida hisoblagichni qasddan yo'q qilish (yoqib yuborish, sindirib maydalash va shu kabilar). Iste'molchining aybisiz hisoblagichga yuqori kuchlanish/tok kelishi natijasida erib ketishi yoki boshqa tabiiy sabablarga ko'ra yaroqsiz holga kelishi bundan mustasno;

z) hisoblagichdan tashqari ulanish;

i) hisobga olinadigan elektr energiyasi miqdorini kamaytirish maqsadida o'lchov transformatorlariga biriktirilgan pasport ma'lumotlarini qasddan o'zgartirib qo'yish;

k) yuridik shaxs iste'molchilar tomonidan (maishiy iste'molchilar bundan mustasno) elektr energiyasini yo'q qilish maqsadida elektr hisoblagichni EHNAT tizimidan qasddan uzib (texnik uzilishlar bundan mustasno), haqiqiy ko'rsatkich bo'yicha hisobot bermasdan elektr hisoblagich ko'rsatkichini yashirish (bunda yashirilgan elektr energiyasi miqdori ikki oylik iste'molidan kam bo'lmaganda).

Mazkur bandning barcha kichik bandlarida keltirilgan holatlarda iste'mol qilingan elektr energiyasi qayta hisob-kitob qilinadi va iste'molchidan undiriladi.

Agar iste'molchilarning hisoblagichlari, o'lchov transformatorlari energetika obekti korxonasiga tegishli hududda (podstansiya, transformator punkti va boshqalar) o'rnatilgan bo'lib, hisoblagich o'lchov tizimiga tashqi aralashuvlar natijasida iste'mol qilingan elektr energiyasi miqdori kamaytirilganligi hisoblagich yoki EHNAT bazasi xotira ma'lumotlari bilan o'z tasdig'ini topganda, iste'molchi javobgar hisoblanadi.

Qoidalarning ushbu bandida nazarda tutilgan qoida buzilishlari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq tegishli javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

4.2. Quyidagi holatlar iste'molchilar tomonidan to'lovlar amalga oshiriladigan elektr energiyasi hajmiga ta'sir qilmagan holda, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normalarga rioya etmaslik holatlari hisoblanadi:

a) texnik shartlarda ruxsat etilgan quvvatdan ortiqcha quvvatni ulab foydalanish;

b) elektr energiyasidan nooqilona va samarasiz foydalanish. Bunda elektr energiyasidan nooqilona va samarasiz foydalanganlik uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy va (yoki) ma'muriy jazo chorasi qo'llanilishi mumkin;

v) iste'mol qilingan elektr energiyasini hisoblash tizimiga ta'sir qilmaydigan usullarda EHNAT tizimi muqobil ishlashiga ta'sir ko'rsatish.

Ushbu bandda keltirilgan holatlarda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi.

4.3. Quyidagi holatlar texnik xato va kamchiliklar yoki elektr energiyasidan foydalanish qoidalarining iste'molchining aybisiz buzilishi deb hisoblanadi:

a) iste'molchilar bilan hisob-kitoblarda noto'g'ri tarif guruhi qo'llanilishi (mayning sohasi bundan mustasno);

b) iste'molchiga mansub bo'lgan tarmoqlardagi texnologik sarflar hamda quvvat koeffitsiyentining ($\cos \phi$) iqtisodiy qiymati hisob-kitob qilinmasligi;

v) arifmetik va texnik xatoliklar natijasida kam yoki ko'p hisoblanishi;

g) hisoblash tizimiga ta'sir qilmagan holda, ikkilamchi tok zanjirida kirish va chiqish simlar o'zaro o'rni almashtirib ulangan holatlar («berish» / «qabul» rejimi). Quyosh panellari o'rnatilganligi bundan mustasno;

d) hisoblagich yoki o'lchov transformatorlari navbatdan tashqari yoki davriy qiyoslov ko'rigidan o'tkazilganda davlat standartlarida ruxsat etilgan xatolik meyorlaridan kam yoki ko'p ko'rsatkichlarda ishlaganligi aniqlanganda;

e) hisoblagich ikkilamchi zanjir simlarining mexanik ta'sirdan uzilishi (tabiiy uzilish) hamda hisoblagich yoki o'lchov transformatorlarining iste'molchining aybisiz buzilishi;

j) hisobga olinadigan elektr energiyasi miqdorini kamaytirish maqsadida dasturga qo'shimcha kamayuvchi koeffitsiyentlarni kiritish;

Ushbu holatlarda iste'molchiga iste'mol qilingan haqiqiy elektr energiyasi sarfi bo'yicha HETK yoki iste'molchi manfaatiga qayta hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

4.4. Qoidalarning buzilish holatlari aniqlanganda, «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ va (yoki) O'zenergoinspeksiya vakolatlari xodimlari tomonidan tegishli elektron tizimlar (E-dalolatnama) orqali mazkur Qoidalarga 1-ilovaga muvofiq elektr energiyasidan foydalanish qoidalarni buzilganligi to'g'risida dalolatnama (keyingi o'rnlarda — dalolatnama) rasmiylashtiriladi. Zarurat bo'lganda, dalolatnomaga holat yuzasidan fotosuratlar va boshqa ashyoviy dalillar ilova qilinishi mumkin.

Dalolatnomani elektron shaklda rasmiylashtirishni imkon bo'limganda, 24 soat ichida tegishli elektron tizimlarga kiritilishini ta'minlash sharti bilan dalolatnama erkin shaklda qog'ozda rasmiylashtirilishiga ruxsat beriladi.

Dalolatnama vakolatlari xodimlari va iste'molchi tomonidan imzolanadi. Iste'molchi dalolatnomaga imzo qo'yishdan bosh tortgan taqdirda, ikki nafar xolis va (yoki) mahalla fuqarolar yig'ini mas'ul xodimlari jalb etilib, holat ularga ma'lum qilinadi hamda ularning dalolatnomaga imzo qo'yishi ta'minlanadi. HETK xodimlari darhol mazkur iste'molchini elektr tarmog'idan uzib qo'yadi.

Iste'molchining elektr qurilmalari elektr tarmog'idan ajratilgandan so'ng «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ va/yoki O'zenergoinspeksiya vakolatlari xodimlari tomonidan belgilangan namunadagi plomba bilan qayta elektr tarmog'iga o'zboshimcha ularishning oldini olish maqsadida plombalanadi.

Elektr qabul qilgichlar quvvatini aniqlash imkon bo'limgan holatlarda, elektr qabul qilgichlarning umumiyy quvvati o'lchov vositalari yordamida aniqlanadi.

Mazkur Qoidalarning buzilish holatlari aniqlash va rasmiylashtirishga mas'ul xodimlari dalolatnomani rasmiylashtirishda, mazkur bandda keltirilgan talablarga amal qilmagan holatlarda, ular qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

HETKning boshqa xodimlari tomonidan mazkur Qoidalarni buzish holatlari aniqlanganda, ular bu haqda o'z rahbari hamda dalolatnama rasmiylashtirishga vakolatlari bo'lgan xodimlarga ma'lum qiladi.

4.5. Ko'rikdan o'tkazish va dalolatnomani rasmiylashtirish jarayonida hisoblagich yoki o'lchov transformatorlariga tashqi ta'sir, ya'ni inson aralashuvi mavjud deb hisoblashga asos bo'lganda, o'lchov vositalarini (hisoblagich va boshqa zarur uskunalar) alohida idishga (quti, idish, polietilen qopcha va boshqalar) solib, iste'molchi bilan birgalikda muhrlab ish hujjatlariga qo'shish maqsadida olib qo'yiladi.

Hisoblagichni olib qo'yish to'g'risida HETK yoki O'zenergoinspeksiya xodimi tomonidan bu to'g'risida ikki nusxada tegishli dalolatnama rasmiylashtirilib, unga tomonlar imzo qo'yadilar hamda uning bir nusxasi iste'molchiga topshiriladi. Mazkur dalolatnomada sana, hisoblagich rusumi, davlat raqami, ko'rsatkichlari, plombalari raqamlari to'liq qayd etiladi.

4.6. Mazkur Qoidalarni buzganlik holatlari natijasida hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori elektr ta'minoti korxonasida tuzilgan maxsus komissiya tomonidan iste'molchi ishtirokida yoki uning ishtirokisiz (xohishiga ko'ra) uch ish kunida aniqlanadi.

Iste'molchi tomonidan asosli hujjatlar taqdim qilingan taqdirda, elektr ta'minoti korxonasi maxsus komissiya a'zolari tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

4.7. Maxsus komissiya a'zolari iste'molchi yoki uning ishonchli vakili ishtirokida (xohishiga ko'ra) hisobga olinmagan elektr energiyasini hisoblashda, uning haqiqiy (aniq) miqdorini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lsa, u holda ushbu miqdor hisoblanishi kerak.

Huquqni muhofaza qiluvchi yoki sud organlari tomonidan qoidabuzarlik bo'yicha hisoblangan elektr energiyasi miqdorini qayta hisoblash zarur deb topilsa, u holda to'plangan hujjatlarga asosan HETK, O'zenergoinspeksiya, shuningdek, xulosa berish vakolatiga ega bo'lган ekspert/mutaxassislar bilan birligida komissiya tuzgan holda qayta hisob-kitob amalga oshirilishi mumkin.

4.8. Mazkur Qoidalarning 4.1 va 4.3-bandlarida keltirilgan qoida buzilishlar bo'yicha qayta hisob-kitoblar umumiy da'vo muddati davridan (uch yil) oshmagan holda amalga oshiriladi.

4.9. Avval aniqlanib dalolatnomalar rasmiylashtirilgan va dasturiy ta'minotga kiritilgan qoidabuzarlik yoki xato-kamchiliklar iste'molchi tomonidan takroran sodir etilganda, avvalgi rasmiylashtirilgan dalolatnomalar rasmiylashtirilgan kunga qadar, dalolatnomada qayd etilgan elektr energiyasi sarfining qayta hisob-kitobi bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar iste'molchini mazkur Qoidalarni buzganlik uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan javobgarliklardan ozod etmaydi.

V.HISOBGA OLINMAGAN ELEKTR ENERGIYASI HAJMINI HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

5.1. Mazkur Qoidalarning 4.1-bandida nazarda tutilgan qoidabuzarliklar aniqlanganda, hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori da'vo muddatini inobatga olgan holda amaldagi tarif miqdori (maishiy iste'molchilarga amaldagi bazaviy meyorlari uchun belgilangan tarifda) bo'yicha quyidagi mezonlar asosida qayta hisob-kitob qilinadi. Bunda 4.1-bandning:

«a» kichik bandidagi qoidabuzarlik sodir etilganda — qoidabuzarlik aniqlangan bino yoki obektga mulk huquqi vujudga kelgan yoxud faoliyatini boshlagan kundan yoki tarmoqqa ulangan kundan (asosli hujjatlarga ko'ra) dalolatnomalar rasmiylashtirilgan kunga qadar, dalolatnomada qayd etilgan elektr qabul qilgichlarning umumiy quvvati bo'yicha sutkasiga 24 soat ishlashi hisobidan.

Bunda tasdiqlovchi hujjatlar sifatida faqatgina rasmiy ravishda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kun to'g'risida soliq organlaridan olingan ma'lumot, kadastr, mahalliy hokimiyat organlarining tegishli qarorlari, yer maydonidan ijarada foydalanayotgan bo'lsa ijara shartnomasi asos bo'ladi;

«b», «d», «e» va «j» kichik bandalaridagi qoidabuzarlik sodir etilganda — hisoblagich xotirasi yoki EHNAT bazasi ma'lumot bazasi ma'lumotlari yordamida hisoblagichga tashqi ta'sir qilinganligi aniqlangan kundan, aniqlash imkon bo'limganda iste'molchi elektr hisoblagichining sxemasi tekshirilgan kundan dalolatnomalar rasmiylashtirilgan kunga qadar dalolatnomada qayd etilgan elektr qabul qilgichlarning umumiy quvvati bo'yicha yuridik shaxs bo'lган iste'molchilarga shartnomadagi ish soatiga asosan (maishiy iste'molchilarga sutkasiga 24 soat ishlashi hisobidan) to'lovlarini inobatga olgan holda hisoblanadi;

«v» kichik bandidagi qoidabuzarlik sodir etilganda — hisoblagich o'rnatilgan kundan yoki hisoblagich xotirasidan (EHNAT ma'lumotlarni saqlash bazasida) aniqlangan tashqi ta'sir qilingan kundan boshlab, dalolatnomalar rasmiylashtirilgan kunga qadar dalolatnomada qayd etilgan elektr qabul qilgichlarning umumiy quvvati bo'yicha, yuridik shaxs bo'lган iste'molchilarga shartnomadagi ish soatiga asosan (maishiy iste'molchilarga sutkasiga 24 soat ishlashi hisobidan) to'lovlarini inobatga olgan holda hisoblanadi (hisoblagichning elektron plombasi buzilmagan holatlar bundan mustasno). Hisoblagichning plombalari buzilganda, hisoblagich elektron plombalari buzilishi bo'yicha hisoblagichni ishlab chiqaruvchi zavod xulosasiga asosan hisob-kitob qilinadi;

«g» kichik bandidagi qoidabuzarlik sodir etilganda — hisoblagich o'rnatilgan kundan yoki hisoblagich xotirasiga (EHNAT ma'lumotlarni saqlash bazasiga) tabaqlashtirilgan tarif sutkaning vaqt zonasi o'zgartirilgan kundan boshlab, dalolatnomalar rasmiylashtirilgan kunga qadar hisobga olinmagan elektr energiyasi sarfidan kelib chiqib, tig'iz davr soatlarida belgilangan tarifga asosan to'lovlarini inobatga olgan holda, hisoblanadi;

«z» kichik bandidagi qoidabuzarlik sodir etilganda — elektr ta'minoti shartnomasi rasmiylashtirilgan kundan yoki ko'chmas mulk oldi-sotdi qilingan yoxud hisoblagich o'rnatilgan kundan dalolatnomalar rasmiylashtirilgan kunga qadar, biroq da'vo muddatidan ortiq bo'limgan muddatda hisoblagichdan tashqari tarmoqqa ulangan elektr qabul qilgichlar quvvatidan kelib chiqib,

yuridik shaxs bo‘lgan iste’molchilarga shartnomadagi ish soatiga asosan (maishiy iste’molchilariga sutkasiga 24 soat ishlashi hisobidan) hisoblanadi;

«i» kichik bandidagi qoidabuzarlik sodir etilganda — o‘lchov transformatori o‘rnatilgan kundan boshlab dalolatnama rasmiylashtirilgan kunga qadar hisoblagich qayd etgan elektr energiyasi sarfiga nisbatan o‘lchov koeffitsiyentlari orasidagi tafovut miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi;

«k» kichik bandidagi qoidabuzarlik sodir etilganda — hisoblagich qayd etgan ko‘rsatkichlar tafovut miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi.

Iste’molchi bir paytning o‘zida mazkur Qoidalarning 4.1-bandida nazarda tutilgan qoidabuzarliklarning bir nechtasini sodir etganda, hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori qayta hisoblash mezonlarining eng yuqori miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi.

Mazkur Qoidalarning 4.1-bandi «a» va «z» kichik bandida nazarda tutilgan qoidabuzarlik sodir etilganligi aniqlanganda, hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori amaldagi tarifga uch baravar o‘suvchi koeffitsiyent qo‘llanilgan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

5.2. Mazkur Qoidalarning 4.3-bandida nazarda tutilgan qoidalalar iste’molchining aybisiz buzilishi aniqlanganda, sarflangan elektr energiyasi miqdori har bir davrdagi tarifda va da’vo muddatini inobatga olgan holda quyidagi mezonlar asosida qayta hisob-kitob qilinadi.

Bunda mazkur Qoidalalar 4.3-bandning:

«a» kichik bandidagi texnik xato va kamchiliklar aniqlanganda — tarif guruhi noto‘g‘ri qo‘llanilgan kundan boshlab dalolatnama rasmiylashtirilgan kunga qadar iste’mol qilingan haqiqiy elektr energiyasi sarfigan kelib chiqib, tariflar orasidagi tafovut miqdori bo‘yicha;

«b» kichik bandidagi xatolik aniqlanganda — hisobga olinmay qolgan texnologik sarf (aktiv va reaktiv) miqdoridan hamda reaktiv quvvatning iqtisodiy qiymatining ($\cos \varphi$) har bir davrdagi tarif miqdori bo‘yicha;

«v» kichik bandidagi xatolik aniqlanganda — hisob-kitoblardagi arifmetik yoki texnik xatoliklar tufayli hisoblangan barcha noto‘g‘ri (kam yoki ko‘p) xatoliklar, qayta tahlil qilinib iste’molchi yoki HETK foydasiga;

«g» kichik bandidagi texnik xato va kamchiliklar aniqlanganda — hisoblagichning ikkilamchi tok zanjirlari kirish va chiqish simlari o‘rni almashtirib ulanishi natijasida kelib chiqqan elektr energiyasi miqdoridagi tafovutni hisobotlarga qo‘shish orqali hisob-kitob qilinadi. Bunda iste’molchining muqobil energiya manbalari o‘rnatilganligi tahlil qilinishi lozim;

«d» kichik bandidagi xatolik aniqlanganda — hisoblagich yoki o‘lchov transformatorlari xatolik bilan ishlashni boshlagan kundan dalolatnama rasmiylashtirilgan kunga qadar, haqiqiy hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori bo‘yicha hisoblanadi. Xatolik bilan ishlashni boshlagan kunni aniqlash imkon bo‘lmasa, hisoblagich o‘rnatilgan kundan dalolatnama rasmiylashtirilgan kunga qadar hisob-kitob qilinadi;

«e» kichik bandidagi texnik xato va kamchiliklar aniqlanganda — hisoblagich xotirasidan (EHNAT ma’lumotlarni saqlash bazasidan) hisoblagich ishdan chiqqan yoki kuchlanish va/yoki tok simlari uzilgan kundan yoxud hisoblagichni ishlab chiqaruvchi zavod xulosasiga asosan ishdan chiqqani aniqlangan kundan dalolatnama rasmiylashtirilgan kunga qadar haqiqiy iste’mol qilingan elektr energiyasi sarfi hisoblanadi. Agar haqiqiy iste’molni aniqlash imkon bo‘lmasa, hisobga olish buzilishiga qadar bo‘lgan oldingi hisob-kitob davridagi yoki hisobga olish tiklangandan keyingi davrdagi o‘rtacha sutkalik sarf bo‘yicha amalga oshiriladi.

«j» kichik bandidagi xatolik aniqlanganda — barcha noto‘g‘ri hisob-kitoblar tahlil qilinib hisobga olinmagan miqdor hisob-kitob qilinadi.

Bunda elektr energiyasining o‘rtacha sutkalik sarfini aniqlash bo‘yicha hisob-kitob qilish davri bir oydan oshmasligi hamda shu davrda hisoblagich o‘rnatilishi lozim.

Iste’mol qilingan energiya (aktiv, reaktiv) sarfi HETK tomonidan aniqlangan qoidabuzarlik natijasida hisobga olinmagan elektr energiyasi (aktiv, reaktiv) miqdorlari, penya va boshqa jarimalar hududiy elektr tarmoqlari hisobvarag‘iga undiriladi.

O‘zenergoinspeksiya ishtirokida aniqlangan elektr energiyasidan foydalanish qoidalari buzish holati bo‘yicha rasmiylashtirilgan qoidabuzarlik dalolatnomasiga asosan:

iste’molchiga elektr energiyasini yetkazib berish to‘xtatiladi va O‘zenergoinspeksiya mutaxassislari tomonidan plomba o‘rnatiladi;

amalga oshirilgan qayta hisob-kitob bo‘yicha to‘lovlar Vazirlar Mahkamasining «Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish

inspeksiyasini moliyalashtirishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2023 yil 28 sentabrdagi 512-son qaroriga muvofiq elektr energetika tashkilotlarining alohida hisobvarag'iga (22636) undiriladi va to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng tarmoqqa qayta ulashga ruxsat beriladi.

Bunda, ruxsatsiz plombani buzganlik uchun belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

5.3. Mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan qoida buzilishi holatlarida iste'molchilarни elektr tarmoqlaridan uzib qo'yish va qayta ulash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VI. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

"Iste'molchi"ning elektr qurilmalarini "Ta'minotchi korxona" elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda ulash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga (O'zDST 32144-2013 va O'zDST 13109-97) muvofiq o'rnatilgan tartibda elektr energiyasini olish;

elektr energiyasi yetkazib berishning to'xtalishi yoki to'xtatib qoyilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

"Sotuvchi korxona"ga iste'mol qiladigan elektr energiyasi hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda elektr energiyasining shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan hisobot oyi boshlanishidan 10 kun oldin berilishi kerak;

elektr energiyasi to'liq hajmda yetkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lмаган elektr energiyasi yetkazib berilishi oqibatida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi yoki elektr ta'minoti korxonasi (aybdor tashkilot) tomonidan yetkazilgan zararlarni belgilangan tartibda qoplash;

shartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

shartnoma bekor qilganda foydalanilmagan elektr energiyasi miqdori uchun to'langan mablag'ni qaytarilishini talab qilish;

Elektr energiyasi sababsiz yetkazib berilishi to'xtatilganda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

mazkur shartnomani tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga, monopoliyaga qarshi davlat organiga yoki boysunuvi bo'yicha yuqori organga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish;

Sotuvchi korxona vakillari kelganda ular kelganligini qayd etish daftari (shnurlangan holda) tutilgan taqdirda unga Sotuvchi korxona vakili kelganida belgilangan tartibda o`zi to'g'risida ma'lumotlarni (F.I.SH., buyruq raqami va sanasi, lavozimi, sana, kelgan vaqt, kelish sababi va boshqalar) yozma to'ldirtirib imzo chekishni talab qilish;

Elektr energiyasi priborlari va qurilmalari xavfsizligini ta'minlash maqsadida doimiy ishlaydigan kuzatuv kameralarini o'rnatish.

"Iste'molchi" qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

6.2. "Iste'molchi" quyidagilarga majbur:

HETK tomonidan belgilangan elektr energiyasini iste'mol qilish rejimiga rioya etish;

foydalanilgan elektr energiyasi uchun o'z vaqtida haq to'lash;

ishlatilayotgan elektr qurilmalari, asboblar va asbob-uskunalarning zarur texnik holatini va iste'molchilarning elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariiga rioya qilinishini ta'minlashga, HETK yoki elektr ta'minoti korxonasi elektr asbob-uskunalarini, hisoblagich va o'lchov transformatorlarining nosoz holati, ulardag'i o'rnatilgan plombalarning buzilganlik holatini ko'rganda, elektr ta'minoti korxonasi xabar berish;

ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmat birligiga elektr energiyasi sarfi meyorlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash (maishiy iste'molchilardan tashqari);

elektr energiyasini iqtisod qilish bo'yicha yillik tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni tasdiqlash hamda ularni ijrosini ta'minlash;

elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

O'zenergoinspeksiyaning ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilish qoidalari talablariga rioya etish;

belgilangan tartibda HETK va O'zenergoinspeksiya xodimiga xizmat guvohnomalari bo'lган taqdirda, sutkaning istalgan vaqtida hisoblagich ko'rsatkichlarini yozib olish va ularning holati, ulanish sxemalari va qurilmalarini ko'rikdan o'tkazish uchun to'sqiniksiz borib ko'rish imkonini berish;

yil mobaynida yangi ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin elektr energiyasining zarur miqdori uchun HETKga buyurtmanoma berish;

kelgusi yil uchun elektr energiyasiga bo'lган ehtiyojni aniqlashda elektr energiyasini elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolarni yoritishga, isitishga, shamollatishga elektr energiyasi sarfini, shuningdek, ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste'molchilarning ehtiyojini hisobga olish;

ruxsat etilgan quvvati 50 kVt va undan ortiqni tashkil etgan barcha iste'molchilar (maishiy iste'molchilardan tashqari) reaktiv energiyani kompensatsiyalovchi qurilmalarni o'rnatishga va ushbu qurilmalarni soz holatda ishlab turishini ta'minlash;

ishlab chiqariladigan mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatlar birligiga sarflanadigan elektr energiyasining belgilangan meyorlardan oshmaslik;

qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatda majburiy energetika tekshiruvi (energoaudit) va ekspertizani o'tkazish;

ishlab chiqariladigan mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatlar birligiga sarflanadigan elektr energiyasi meyorlari ta'minlanishi uchun yillik elektr energiyasini iqtisod qilish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar ishlab chiqilishi va ularning bajarilishini ta'minlash.

Ulangan quvvati 5 megavatt va undan ortiq bo'lган elektr energiyasi iste'molchilar HETK talabiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va bu haqida HETKn xabardor qilishi shart:

iste'mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdorini;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfini;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfini.

Ulangan quvvati 250 kVA va undan ortiq bo'lган iste'molchilar yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlar bilan birgalikda quyidagilarga majbur:

mahsulot birligini ishlab chiqarish (ishlarni amalga oshirish) uchun elektr energiyasi sarfining texnik va iqtisodiy jihatdan asoslangan ilg'or normalarini ishlab chiqish – umumiy ishlab chiqarish va texnologik; yakka tartibdagi va guruh bo'yicha; yillik, choraklik va oylik – ularni ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashtirilishi (o'zgartirilishi) va yangi texnika joriy etilishiga qarab qayta ko'rib chiqish;

korxona bo'yicha, shu jumladan ko'p energiya sarflaydigan uskunalar, sexlar va iste'molchilar guruhlari bo'yicha elektr energiyasi balanslarini tuzish hamda ular asosida ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, elektr energiyasining samarasiz sarflanishi va isrof bo'lismeni aniqlash, ularni kamaytirish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

kelgusi davr uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni va elektr tarmoqlarining energiya o'tkazish qobiliyatini oshirish, elektr ta'minoti sxemalarini takomillashtirish zaruriyatini aniqlash maqsadida (mahsulot ishlab chiqarishning, bajariladigan ish turlarining mo'ljallanayotgan prognoz hajmlaridan va elektr energiyasi sarfi meyorlaridan kelib chiqib, ularni kamaytirish va elektr energiyasini tejashni hisobga olgan holda) elektr energiyasining bir yil va kelgusi davr uchun balanslarini tuzish;

mahsulot (ishlar) birligiga elektr energiyasi sarfining tasdiqlangan meyorlariga rioya qilish va ularni kamaytirish bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

elektr energiyasini tejash bo'yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

"Iste'molchi" "Ta'minotchi va Sotuvchi korxona" tomonidan belgilangan energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarishi shart.

Yillik elektr energiya iste'moli ikki ming tonnadan ortiq shartli yoqilg`iga teng yoki ortiq bo`lganda vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda energetika tekshiruvidan o'tkaziladi.

Sotuvchi korxona vakili tashrif buyurganda qonunbuzilish holati aniqlanganda va aniqlanmagan taqdirda belgilangan tartibda va shaklda dalolatnomaga rasmiylashtirib, uni bir nusxasini taqdim etilishini talab qilish.

Iste'molchi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatganda amaldagi iste'moli va o'rnatilgan tartibda elektr tarmog'iga uzatgan elektr energiyasi hisobini yuritish;

"Iste'molchi" qonun hujjalariiga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.3. "Ta'minotchi va Sotuvchi korxona" quyidagi huquqlarga ega:

iste'molchilardan elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan majburiyatlarni tegishli darajada bajarishni talab etish;

iste'molchilar tomonidan elektr ta'minoti shartnomasi shartlari bajarilmasligi yoki buzilishi oqibatida unga yetkazilgan zararning belgilangan tartibda qoplanishi;

EHNATga ulangan va oldindan to'langan mablag' tugagandan so'ng elektr energiyasi uchun oldindan to'lovni amalga oshirish qurilmasiga ega hisobga olish asbob mavjud bo'lgan iste'molchilarни tarmoqdan uzish. Bunda tarmoqdan uzilgandan so'ng iste'molchining ko'rishi mumkin bo'lgan zarari uchun "Sotuvchi korxona" javobgar bo'lmaydi.

Mazkur Qoidalar va boshqa normativ-huquqiy hujjalarda nazarda tutilgan holatlarda iste'molchilarini elektr tarmoqlaridan uzish oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

"Ta'minotchi va Sotuvchi korxona" qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.4. "Ta'minotchi korxona" quyidagilarga majbur:

"Iste'molchi"ga elektr energiyasini elektr tarmog'i orqali elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik bo'linish chegarasigacha shartnomada ko'rsatilgan hajmda muntazam yetkazib berish;

uskunalar, elektr uzatish liniyalarini, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek, o'z elektr xo'jaligi obektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr tarmog'i xo'jaligi obektlarini rejali ta'mirlanishi tufayli elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida kamida 3 kun oldin ogohlantirish;

"Iste'molchi"ni elektr energiyasini yetkazib berilishi to'xtatilishi va to'xtatilish sabablari to'g'risida xabardor qilish (Iste'molchi mas'ul xodimlarini uyalı aloqa vositasi orqali (telefonogramma), ovozli xabar, telegram xabarnoma, SMS xabar orqali, internet sayt tarmoqlari orqali yoki yozma tarzda) kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida, cheklashlarni hajmi va vaqtini ko'rsatilgan holda "Iste'molchiga" oldindan xabar berish;

amaldagi davlat standartiga (O'zDST 32144-2013 va O'zDST 13109-97) muvofiq bo'lgan elektr energiyasini yetkazib berish;

elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha fors-major holatlari va qisqa vaqt uzilishlardan tashqari sabablarga ko'ra uzilishlar bo'yicha issiqxona xo'jaliklari va muzlatkichli omborxonalarini kamida 24 soat oldin ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa yo'l bilan xabardor qilish.

6.5. "Sotuvchi korxona" quyidagilarga majbur:

iste'molchining belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda elektr energiyasining oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, elektr energiyasining oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'limgan taqdirda – bu haqda rad etish sababini ko'rsatgan holda iste'molchiga xabar qilish;

"Iste'molchi"ga o'rnatilgan tartibda yetkazib berilgan energiya hisobini yuritish;

"Iste'molchi"da o'rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish va o'rnatish, plombalashni ta'minlash;

iste'molchining sarflagan elektr energiyasi uchun qarzi vujudga kelganda qarzni besh kun muddatda to'lash zarurligi to'g'risida xabardor qilish (EHNATga ulangan iste'molchilar bundan mustasno). Bunda elektron hisob-faktura jo'natilganligi iste'molchini to'lash to'g'risida ogohlantirish hisoblanadi;

Iste'molchilarga tuziladigan dalolatnomalarning belgilangan tartibda tasdiqlangan shakllarini o'z veb saytida e`lon qilish;

Iste'molchiga kuzatuv, o`rganish yoki tekshirish uchun borganida qonun buzilish holati aniqlanishidan qat'iy nazar belgilangan tartibda dalolatnomasi rasmiylashtirilib bir nusxasini iste'molchiga taqdim etish;

Iste'molchi tomonidan elektr ta'minot korxonasi vakillarini qayd etish daftari tutilgan taqdirda unga Sotuvchi korxona vakili borganida belgilangan tartibda o'zi to'g'risida ma'lumotlarni (F.I.SH., buyruq raqami va sanasi, lavozimi, sana, kelgan vaqt, kelish sababi va boshqalar) yozma to`ldirib imzo chekish;

Sotuvchi korxona qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo`lishi mumkin.

VII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Elektr ta'minoti shartnomasi bo'yicha taraflar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgar bo'ladi shuningdek, shartnoma shartlari bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda, "Ta'minotchi korxona" va "Sotuvchi korxona" buning natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga, "Iste'molchi" esa yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

7.2. "Ta'minotchi korxona" va "Sotuvchi korxona", "Iste'molchi" oldida moddiy javobgar bo'lmaydi agar:

"Iste'molchi" elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilmay, elektr energiyasi iste'moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qoyganda, "Sotuvchi korxona" tomonidan belgilangan elektr energiyasi cheklash jadvali bajarmagani tufayli past sifatli elektr energiyasi yetkazib berilganligi uchun;

zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda chastotani sozlash bilan bog'lik o'chirishlar vaqtida elektr energiyasini yetkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun;

elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar (IES, GES) va uni magistral tarmoq orqali yetkazib beruvchi (MET) korxonalar tomonidan elektr ta'minida uzilishlar bo'lganda.

Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda, elektr bilan ta'minlovchi tashkilot shu tufayli yetkazilgan zararning, abonent esa yetkazilgan haqiqiy zararning o'rnini qoplashi shart.

Agar elektr energiyasi yetkazib berishdagi uzilishlar quvvat va energiya yetishmasligi sababli energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tomonidan qonunchilik asosida iste'molni tartibga solish natijasida yuz bergen bo'lsa, elektr energiyasi bilan ta'minlovchi tashkilot aybdor bo'lgan taqdirdagina shartnomaga majburiyatlarini bajarmagani yoki tegishli darajada bajarmagani uchun javob beradi.

Elektr energiyasini sifat ko'rsatkichlari amaldagi standart talablaridan belgilangan meyorlaridan buzilganda uni aniqlash Sotuvchi korxona va Iste'molchi, "O'zenergoinspeksiya", akkreditatsiyadan o'tgan standart organi bilan birgalikda maxsus akkreditatsiyadan o'tkazilgan elektr energiyasini o'lchov asboblari orqali o'lchov ishlari olib borish natijasida aniqlanadi va belgilangan tartibda dalolatnomaga tuziladi, imzolanadi hamda tomonlarga bir nusxadan beriladi. Ushbu o'lchov davri 3 kun davomida amalga oshiriladi. Bunda barcha harajatlar aybdor tomon mablag'lari hisobidan qoplanadi.

"Ta'minotchi korxona" va "Sotuvchi korxona" qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.3. Tomonlar ularning xohish va harakatlariiga bog'liq bo'limgan tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababli ushbu sharoitlarda qaytarib bo'lmaydigan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlarni o'z ichiga olgan yengib bo'lmas kuch (fors-major) oqibatida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi.

7.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o'tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o'tkazish orqali hal qilishning iloji bo'limganda, ular qonunchilikda belgilangan sud tartibida hal qilinadi.

VIII. ELEKTR ENERGIYASINI CHEKLASH YOKI UZIB QOYISH SHARTLARI

8.1. Quvvat va elektr energiyasi iste'moli bo'yicha Cheklash va uzib qoyish jadvallari "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan iste'molchilar bilan birga ishlab chiqiladi va mahalliy ijro hokimiyyati organlari, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ va "Milliy dispetcherlik markazi" DUK bilan kelishilib, tasdiqlash uchun "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan Energetika vazirligiga kiritiladi. Energetika vazirligi tomonidan tasdiqlangan cheklash va uzib qoyish jadvallari yagona elektr energetika tizimida elektr quvvati va energiya tanqisligi paydo bo'lganda qo'llaniladi.

8.2. Elektr energiyasini cheklash va uzib qoyish jadvallari iste'molchining texnologik va avariya bronini aniqlash dalolatnomasiga asosan, joriy yilning 1-oktabridan keyingi yilning 1-oktabrigacha bo'lgan davr uchun tuziladi hamda jadvallarga kiritilgan barcha iste'molchilar uchun ularni bajarish majburiy hisoblanadi.

Jadvallarning quyidagi turlari tuziladi:

yagona elektr energetika tizimida yoqilg'i yoki gidroresurslar yetishmaganda, elektr energiyasini (kVt.soatda) cheklash jadvali. Jadvalda elektr energiyasi iste'molini iste'molchilarning texnologik bronigacha, keyinchalik esa avariya bronigacha (cheklashga mansub bo'limgan obektlardan tashqari) va bunda iste'molni beshta navbatga bo'lgan holda qisqartirish nazarda tutilishi lozim;

yagona elektr energetika tizimida quvvat yetishmaganda, quvvatni (kVtda) cheklash jadvali. Jadvalda yagona elektr energetika tizimining ertalabki va kechki eng katta yuklamalari yuzaga keladigan soatlarda iste'mol qilinadigan quvvatni iste'molchilarning avariya bronigacha kamaytirish va bunda iste'mol qilinadigan quvvatni 5 ta navbatga bo'lish nazarda tutilishi lozim;

quvvat taqchilligi yuzaga kelishi natijasida avariya xavfi paydo bo'lganda va cheklash jadvallarini joriy qilish imkoniyati bo'limganda, quvvatni cheklash jadvali. Jadvalda uzib qoyilishi mumkin bo'limgan obektlardan tashqari yagona elektr energetika tizimi iste'molchilarini to'liq uzib qoyish va uzib qoyiladigan quvvatni 5 navbatga bo'lism nazarda tutilishi lozim.

8.3. Cheklash va uzib qoyish jadvallarini amalga kiritish tartibi quyidagilar:

elektr energiyasi va quvvatni cheklash va uzib qoyish jadvallari "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ rahbari farmoyishi bilan amalga kiritiladi. Dispatcherlik boshqaruving barcha darajalarida elektr energiyasini cheklashni joriy etish farmoyishi operativ jurnalda cheklash hajmi, cheklash boshlanadigan va tugaydigan vaqt qayd etilgan holda beriladi;

hududiy elektr tarmoqlari korxonasi iste'molchilarga keyingi sutkalarda elektr energiyasini cheklash jadvallarining amalga kiritilishi to'g'risida joriy sutkaning soat 14:00 dan kechiktirmay, cheklash hajmi, cheklash boshlanadigan va va tugaydigan vaqtini ko'rsatgan holda ma'lum qiladi.

Elektr energiyasini cheklash jadvallarini zudlik bilan joriy etish zarur bo'lganda, bu haqidagi bildirishnomalar sutkaning vaqtidan qat'i nazar, cheklashning amal qilishi boshlanishidan 1 soat oldin iste'molchilarga yetkaziladi.

Uzib qoyish jadvallari iste'molchilar tomonidan hududiy elektr tarmoqlari korxonasidan uzib qoyish jadvallari joriy etilishi to'g'risidagi bildirishnomalar olingandan keyin darhol joriy etiladi.

Iste'molchilar – cheklash va uzib qoyish jadvaliga kiritilgan, shu jumladan uzlusiz ishlab chiqarish texnologik jarayoniga ega korxonalar, tashkilotlar va muassasalar (cheklash va uzib qoyilishi mumkin bo'limgan obektlardan tashqari) cheklash va uzib qoyish jadvallarining hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan ko'rsatilgan muddatda so'zsiz bajarilishini tashkil etishi shart. Aks holda, ular uzib qoyish va cheklash jadvallari bajarilmaganligi tufayli yagona elektr energetika tizimi markazlaridan majburiy uzib qoyish natijasida yuzaga keladigan oqibatlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi elektr energiyasi va quvvatini cheklash jadvallarini amalga kiritish to'g'risidagi farmoyish iste'molchilar tomonidan bajarilmagan, ularni ogohlantirgandan so'ng elektr energiyasi va quvvat iste'molining belgilangan darajada kamayishini ta'minlovchi miqdorda elektr energiyasi yetkazib berilishini majburiy ravishda cheklaydi.

Bu boradagi texnologik jarayonlar buzilishining oqibatlari uchun javobgarlik Iste'molchi korxona rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

8.4. Yagona elektr energetika tizimida elektr energiyasi va quvvatda tanqislik vujudga kelganda, avariyalarga yo'l qoymaslik va iste'molchilarning tartibsiz uzib qoyilishining oldini olish maqsadida HETK o'chirish vaqtini ko'rsatgan holda, iste'molchilardan tashqi reklama va axborot obektlari konstruksiyalari, illyuminatsiya va lampalar shodasi, bino va inshootlarni yoritgichlarni, elektr isitish va issiq suv bilan ta'minlash qurilmalarini o'chirib qoyishni talab qilishga haqla.

Qoidalarda nazarda tutilmagan sabablarga ko'ra Iste'molchilarni elektr energiyasidan o'chirganlik uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq iqtisodiy choralar qo'llaniladi.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

9.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

9.2. Iste'molchi ushbu shartnomasi amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdar shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Sotuvchi korxonanining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Sotuvchi korxonanining hamda

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

X. YAKUNIY SHARTLAR

10.1. Shartnama 20____ yil ____ gacha bo'lgan muddatga tuzildi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnama keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (Budget tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

10.2. Mazkur shartnama bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki (Budget tashkilotlari uchun uch) nusxada tuzilgan. Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

10.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin xabardor qilgan holda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda yuboriladi.

10.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

10.5. Mazkur shartnama talablarida nazarda tutilmagan tartib-qoidalar Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 319-son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari hamda boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tartibga solinadi.

ISTE'MOLCHILARGA OGohlANTIRISH!

Umumiy foydalanishdagi elektr tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalari boshqacha tarzda buzish yoxud elektr energiyasini hisobga olish priborlariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, **elektr energiyasini behuda sarflash, elektr tarmoqlarini muhofaza qilish qoidalari buzish** O'zbekiston Respublikasining **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61-moddasi uchinchi qismi, 100, 101, 102** hamda **Jinoyat kodeksining 169, 185-2-moddalariga** asosan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Ushbu shartnama bo'yicha boshqa ogohlantirishlar 8-ilovada keltirilgan.

TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

ISTE'MOLCHI:

Yuridik anzili _____

Hisobraqami _____

Bank kodi (MFO) _____ STIR (INN) _____

Respublika va mahalliy budgetdan moliyalashtiriladigan Iste'molchilar uchun:

Budget fondining hisobraqami _____

Bank kodi (MFO) _____ STIR (INN) _____

Budgetdan tashqari fondning hisobraqami _____

Bank kodi (MFO) _____ STIR (INN) _____

QQS to'lovchining kodi _____

Telefonlar: _____ *Faks:* _____

email: _____

(Iste'molchining, shu jumladan rahbarining uyali, faks telefonlari kodi elektron manzil yoziladi)

Kadastr raqami ____:_:_:_:_:_:_:_:_:_:_:_:_:_:_:_:_:_:_

Statistik kodlar:

IFUT (OKED) _____

DBIBT (SOOGU) _____

MHOBT (SOATO) _____

(KFS) _____

TSHK (KOPF) _____

SOTUVCHI KORXONA:

ELEKTR ENERGIYA TO'LOVLARI UCHUN

Pochta manzili _____

Hisob raqam **4014** _____

Bank kodi (MFO) **00440** STIR (INN) _____ G`AZNA → STIR (INN) _____

COSq to'lovleri uchun:

MFO 00440 STIR (INN) _____ HISOB RAQAM→ **22636** _____

Qoidabuzarlik bo'yicha rasmiylashtirilgan dalolatnomalar to'lovleri uchun:

MFO 00440 STIR (INN) _____ HISOB RAQAM→ **22636** _____

Reaktiv quvvat kompensatsiyasi, penya va tarmoqqa qayta ulash to'lovleri uchun:

MFO 00440 STIR (INN) _____ HISOB RAQAM→ _____

QQS to'lovchining kodi _____

Telefonlar: _____ *Faks:* _____

Statistik kodlar:

DBIBT (SOOGU) _____

MHOBT (SOATO) _____

•

Iste'molchi:

M.O'. (Imzo, F.I.SH., sana)

Sotuvchi korxona:

M.O'. (Imzo, F.I.SH., sana)

YURISKONSULT XULOSASI:

Mazkur elektr energiyadan foydalanish shartnomasi _____
yuriskonsulti _____ (*F.I.SH.*)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydag'i 319-sonli qarori talablariga muvofiq tuzilgan. Tomonlar o'rtasida mazkur shartnomani tuzish uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablari monelik qilmaydi. Shartnoma ishtirokchilarining huquq va majburiyatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni talablariga javob beradi. Shartnoma shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lган javobgarlik masalasi tomonlar o'rtasida qonuniy kelishilgan. Shartnoma yuzasidan shartnoma ishtirokchilari o'rtasidagi nizolarni hal qilish tartibi belgilangan.

Yuriskonsult:_____

YETKAZIB BERILADIGAN ENERGIYA HAJMI

1. Tarif guruhi _____
2. Faoliyat turi _____
3. Iste'molchi elektr qurilmalarining ulangan quvvati _____ kVA (kVt)
4. Texnik shart raqami _____. sanasi _____.
Texnik shart bo'yicha ruxsat berilgan quvvati _____ kVt
5. Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (loyiha bo'yicha) _____
Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (amalda) _____
6. Hisob-kitob turi _____
tarif turi: tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki aholiga tenglashtirilgan (keraklisi yozilsin)
7. Mahalla nomi _____

Oylar	Energiya hajmi	
	Aktiv energiya shartnomaviy miqdori ming. kVt*soat	Reaktiv energiyaning iqtisodiy miqdori ming. kVar*soat
Yanvar		
Fevral		
Mart		
Aprel		
May		
Iyun		
Iyul		
Avgust		
Sentabr		
Oktabr		
Noyabr		
Dekabr		
Yil, jami		

Ish soat va kunlari: _____ soat, _____ kun

Umumiy yuklamaga nisbatan smenalar bo'yicha yuklanish % hisobida I ____, II ____, III ____

Iste'molchi:

M.O': (Imzo, F.I.SH., sana)

Sotuvchi korxona:

M.O': (Imzo, F.I.SH., sana)

Elektr ta'minoti shartnomasiga

**ENERGIYANI HISOBGA OLISH PRIBORLARI O'RNATILGAN JOYLAR VA
ULARNING TAVSIFLARI**

<p>“Iste’molchi”ning (subiste’molchini ng) hisobga olish pribori o’rnatilgan joylar, turi va kuchlanish toifasi (kV) ko’rsatilgan holda</p>	<p>Hisobga olish pribori turi (nominal toki)</p>	<p>Hisobga olish pribori raqami Hisobga olish pribori klemma qopqog’idagi plombaning raqami</p>	<p>O’lchov transformatorlarining transformatsiya koeffitsiyenti Hisob-kitob Koeffitsiyenti</p>		<p>Hisobga olish priborini ngshartnoma tuzilgan kundagi ko’rsatki chlari, hisoblagich</p>	<p>Tarif turi so’m/ 1 kVt.s.</p>
			Tok	Kuchlanish		

Imzolar:

Iste’molchi:

M.O‘. (Imzo)

Sotuvchi korxona:

M.O‘. (Imzo)

TOMONLAR ELEKTR TARMOQLARINING BALANS MANSUBLIGI
VA EKSPLUATATSIYA QILISH BO'YICHA MAS'ULLIK CHEGARASI
DALOLATNOMASI

Izoh: Har bir elektr energiyasi hisobga olish pribori uchun alohida 3 va 4-ilovalar tuziladi.
Hisobga olish pribori davlat raqami _____ tok transformatori _____ kuchlanish
transformatori _____ jami koefisiyent _____ ulangan quvvati _____ kVt

Hisobga olish pribori o'rnatilgan joy (manzil) _____

1. "Iste'molchi"ning balansida quyidagi elektr qurilmalar mavjud:

a) havo elektr tarmog'i _____

b) kabel elektr tarmog'i _____

v) podstansiyalar, transformator podstansiyalari TP raqami _____ ,
kVA _____

2. "Iste'molchi" va "Sotuvchi korxona" o'rtaсидаги elektr tarмоqlarning balans bo'yicha mansublik chegarasi _____

3. Ulardan quyidagilarga:

a) _____

_____ xizmat ko'rsatish "Iste'molchi" xodimlari tomonidan,
b) _____ "Iste'molchi" bilan tuzilgan

"Texnik xizmat ko'rsatish" № _____ sana _____ y. shartnomasi asosida
_____ tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Texnik xizmat
ko'rsatish shartnomasi tuzilmasa Ta'minotchi korxona tomonidan xizmat ko'rsatilmaydi.

• 4. Elektr qurilmalarning holati va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha javobgarlik chegarasi
quyidagicha belgilandi: _____

Vakillar:

Iste'molchi:

M.O'. (Imzo)

Sotuvchi korxona:

M.O'. (Imzo)

Elektr ta'minoti shartnomasiga

ENERGIYANI YO'QOLISHLARINI ANIQLASH BO'YICHA

DALOLATNOMA

Energiya hisobga olish priborlari elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansubligi chegarasi hisobga olingan holda mansublik chegarasidan hisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lган qismi hisoblash yo'li bilan aniqlanadi va quyidagilarga hisoblanadi:

a) Quvvati _____ kVA bo'lган transformatorlardagi oylik aktiv energiyaning yo'qolishlari _____ kVt.soat yoki _____ %, reaktiv energiya yo'qolishlari _____ kVAr.soat yoki _____ % tashkil etadi;

b) Iste'molchining kabel liniyalaridagi har oylik energiyani yo'qotish:

Uzunligi _____ m;

Kesim yuzasi _____ mm²;

Rusumi _____ ;

Kuchlanishi _____ kV bo'lsa, _____ kVt.soatni, yoki _____ % tashkil etadi;

v) Iste'molchining havo liniyalaridagi har oylik energiya yo'qolishlari:

Uzunligi _____ m;

Kesim yuzasi _____ mm²;

Rusumi _____ ;

Kuchlanishi _____ kV bo'lsa, _____ kVt.soatni, yoki _____ % tashkil etadi.

Energiyani har oyda jami yo'qotishlar hajmi hisob davridagi energiya sarfining _____ foizini tashkil etadi.

Ushbu Sharhnomaning 3.8-bandiga asosan yuqorida ko'rsatilgan energiya yo'qolishlari Iste'molchining har hisob-kitob davri uchun, hisob-kitob davridagi amaldagi energiya iste'molidan kelib chiqib foiz hisobida yoki taraflarning kelishuvi asosida hisob-kitob qilinadi.

Imzolar:

Iste'molchi:

M.O'. (Imzo)

Sotuvchi korxona:

M.O'. (Imzo)

Elektr ta'minotining sharhnomasiga
5-ilova

**ENERGIYA (AKTIV, REAKTIV) SARFI BO'YICHA
HISOBOT**

20____ yil _____ oyi bo'yicha

Ko'rsatkichlar qayd etilgan sana “___” _____ 20 ____ yil.

Ulangan joy nomi, hisobga olish priborining zavod raqami, hisobga olish turi (aktiv, reaktiv)	Hisob-kitob koeffitsiyenti			Hisobga olish pribori ko'rsatkichlar i		Hisobga olish pribori kursatkichlarining farqi	Sarf kVt.s., kVAr.s.	Tabaqlashtirilgan tarif bo'yicha sarf kVt.s.					
	tok transformatorining (TT)	kuchlani sh transformatorining (KT)	umumi y	boshlang'ich	oxirgi			Erta-labki tig'iz vaqt	Kun	Kechki tig'iz vaqt	Tun		
								soat 6-9	soat 9-17	soat 17-22	soat 2 2-24	soat 0-6	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	
Jami													

Izoh: $7_{\text{ustun}} = 6_{\text{ustun}} - 5_{\text{ustun}}$, tabaqlashtirilgan hisob uchun nazorat raqami $8_{\text{ustun}} = 7_{\text{ustun}} * 4_{\text{ustun}}$,

$8_{\text{ustun}} = 9_{\text{ustun}} + 10_{\text{ustun}} + 11_{\text{ustun}} + 12_{\text{ustun}} + \text{gr} 13_{\text{ustun}}$;

Ulangan quvvati 50kvtdan yuqori bo`lgan barcha iste`molchilar reaktiv energiya sarfi ko`rsatkichlarini topshirishi shart hisoblanadi.

Iste'molchi rahbari:

M.O‘.

(F.I.SH., imzo)

Iste'molchi energetigi

(F.I.SH., imzo)

1. KOMPENSATSIYA QURILMALARINING BELGILANGAN QUVVATI

T/r №	Kompensatsiya qurilmalarining turlari	Quvvati	Ulanish vaqtি		Jami
			Ertalab	Kechqurun	
1.	Kondensatorlar, kVAr 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori, jumladan:				
1.1.	Avtomatik boshqariladigan: 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori,				
1.2.	Qo'lda boshqariladigan: 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori,				
2.	Sinxron dvigatellar – (SD), kVt				
3.	SDning reaktiv quvvati, kVar (SDning o'rnatilgan quvvatining 30 foizi, kVt)				
4.	Jami (1b.+3b.) kVAr: 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori.				

IZOH: avtorejimda ishlaydigan kondensator qurilmalari bilan jihozlangan tashkilotlar ulanish vaqtlarini to'ldirishi shart emas.

2. REAKTIV ENERGIYANING IQTISODIY MIQDORI

Reaktiv energiyaning har bir hisobot davri uchun iqtisodiy qiymati, ushbu Shartnomada ko'rsatilgan va o'rnatilgan tartibda aniqlanadigan quvvat koeffitsiyentining optimal miqdori hisobga olinib, ushbu davr uchun aktiv energiyaning shartnomadagi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Hisobot davrining yakuni bo'yicha reaktiv energiya iqtisodiy qiymatining amaldagi miqdori iste'mol qilingan aktiv energiya va quvvat koeffitsiyentining shartnomaviy miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tarifga ustama qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan holda faol energiyaning amaldagi tarifi bo'yicha:

5% – reaktiv energiyadan iqtisodiy qiymat doirasida foydalanilganda, bu amalda iste'mol qilingan aktiv energiya va quvvat koeffitsiyentining shartnomaviy miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

10 % – reaktiv energiyadan iqtisodiy qiymat miqdoridan ortiq foydalanilganda, bu amalda iste'mol qilingan aktiv energiya va quvvat koeffitsiyentining shartnomaviy miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

Reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun elektr energiyasi tarifiga ustamalar jarima sanksiyasi hisoblanmaydi va elektr ta'minoti shartnomasiga asosan undiriladi.

Reaktiv energiya o'rni yetarlicha qoplanmagani hisobiga quvvat koeffitsiyenti qiymatining iste'molchilar tomonidan elektr ta'minoti shartnomasida ko'rsatilganiga nisbatan pasaytirilgani aniqlanganda, HETK elektr energiyasi yo'qolishi qiymatining texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshiradi, shuningdek, quvvat koeffitsiyenti ko'rsatkichlari belgilangan normativlarga nisbatan pasaytirilgani uchun iste'molchilardan qo'shimcha mablag'lar Vazirlar Mahkamasining «Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasini moliyalashtirishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2023 yil 28 sentabriddagi 512-son qaroriga muvofiq HETKnинг alohida hisobvarag'iga (22636) undiriladi.

Iste'molchilar reaktiv quvvatni yetarli darajada kompensatsiya qilmaganligi natijasida tarmoqlarda aktiv energiyaning qo'shimcha yo'qotishlari uchun qayta hisob-kitoblar amaldagi tarifga nisbatan uch baravar miqdorda hisoblanadi.

Tarif chegirmalar iste'molchi yagona elektr tizimi tarmog'ida elektr tarmog'inining katta yuklamali soatlarda reaktiv energiya hosil qilganda va elektr tarmog'inining kichik yuklamali soatlarda energiya tizimi tarmog'idan reaktiv energiya iste'mol qilinganda, agar Iste'molchining bunday rejimida ishlash zarurati Shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa, taqdim etiladi.

Chegirma qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan holda aktiv energiya uchun amaldagi tarifning 15% miqdorida belgilanadi.

Iste'molchi:

(Imzo)

Sotuvchi korxona:

(Imzo)
Elektr ta'minoti shartnomasiga

**AVARIYAVIY VA TEXNOLOGIK BRONNI ANIQLASH BO'YICHA
DALOLATNOMA**

Iste'molchi _____ ning ishtirokida tuzildi.

Yagona elektr energetikasi tizimida uzoq muddatli yoki qisqa muddatli quvvat tanqisligi yuzaga kelganda Iste'molchi quyidagilarni bajarishi kerak:

1. Uskuna yuklamasini texnologik bron darajasigacha pasaytirish:

T/r №	Texnologik broniga taalluqli sexlar va agregatlar nomi*	Ishda qoldirilgan yuklamalar quvvati (kVt)	Izoh
1.			
2.			
3.			
4.			

Jami: _____ kVt

* a) Barcha sexlar va agregatlar zudlik bilan o'chiriladi. O'chirilishi yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarilishi, uskunaning buzilishi, portlash, yong'in, zaharlanish va boshqa baxtsiz hodisalarga olib keluvchi sexlar va agregatlar bundan mustasno.

b) Texnologik bronga, shuningdek avariya broniga taalluqli sexlar va agregatlar ham kiradi (2-bandga qarang.)

Texnologik bronni cheklash bosqichlari:

I bosqich _____ kVt

II bosqich _____ kVt

III bosqich _____ kVt

IV bosqich _____ kVt

2. _____ o'tganidan keyin sexlar va agregatlar avariya bronni darajasigacha uzib quyiladi.

T/r №	Avariya broniga taalluqli sexlar va agregatlar nomi*	Ishda qoldirilgan yuklamalar quvvati (kVt)	Izoh
1.			
2.			
3.			
4.			

Jami: _____ kVt

* a) O'chirilishi suv ta'minoti, aloqa vositalari ishining to'xtashiga, isitish tizimining muzlab qolishiga olib keluvchi sexlar va agregatlar, hamda qo'riqlash yoritgichlari elektr tarmog'idan uzilmagan holda qoldiriladi.

b) Yong'inga qarshi zaxira nasoslar va boshqa yong'inga qarshi agregatlar avariya broniga kirmaydi (ushbu agregatlar, zaruratga qarab, oldindan Sotuvchi korxona bilan kelishilgan holda ro'yxatga kiritilishi mumkin).

Imzolar:

Iste'molchi:

M.O'. (Imzo)

Sotuvchi korxona:

M.O'. (Imzo)

Elektr ta'minoti shartnomasiga

**RASMIY OGohlantirish
(TALABNOMA)**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydag'i "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 319-son qarori bilan elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar tartibi belgilangan.

Yuqoridagi normativ hujjat asosida tayyorlangan va HETK tuman bo`limi bilan Sizning korxonangiz o'rtaida tuzilgan "Elektr energiyasini yakuniy yuridik va yuridik maqomga ega bo'limgan iste'molchilarga sotish shartnoma"sining talablariga ko'ra:

1. "Elektr tarmoqlari korxonasi tarmoqlari orqali iste'molchiga elektr energiyasini yetkazib berish majburiyatini, iste'molchi esa qabul qilingan elektr haqini to'liq to'lash majburiyatini oladi"

2. "Iste'molchi" har oyning **1-sanasidan 5-sanasiga qadar** amalda iste'mol qilgan elektr energiyasining hisobotini Sotuvchi korxonaga taqdim qilishi;

3. "Iste'molchi" tomonidan **hisob faktura yuborilgan kundan boshlab 5 kun muddatda iste'mol qilingan elektr energiya hajmi oldindan to'lovni inobatga olgan holda to'lov fakturasida ko'rsatilgan summani to'liq to'lab berishi;**

4. **To'lovni amalga oshirish muddati tugaganidan so'ng**, to'lovlarni to'liq amalga oshirmagan qarzdar iste'molchilarni **tarmoqdan ajratish** belgilangan. (**EHNATga ulanib tarmoqdan ajratish imkoniyatiga ega iste'molchilarga** oldindan to'lov doirasida elektr energiya yetkazib beriladi, oldindan to'lov miqdori **100 foizdan kam miqdor bo'lganda dastur tomonidan avtomatik tarzda tarmoqdan ajratiladi**).

Eslatma: Joyiga chiqqan holda elektr tarmoqlaridan uzib qoyilgan iste'molchilarni qayta ularshda iste'molchilardan bazaviy hisoblash miqdorining **o'n baravari** miqdorida to'lov undiriladi va ushbu mablag'lar Sotuvchi korxonaning hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Masofadan (EHNATdan) uzib qoyiladigan va ulanadigan iste'molchilarni tarmoqqa qayta ularsh uchun to'lov undirilmaydi.

HURMATLI ISTE'MOLCHI!!!

Yuqoridagilarga muvofiq Sizdan, har oyda belgilangan muddatlarda to'liq hisob-kitobni amalga oshirishingiz talab qilinadi. Aks holda, dastur tomonidan avtomatik tarzda yoki joyiga chiqqan holda elektr tarmog'idan qo'shimcha ogohlantirishsiz uzelishi, to'plangan hujjatlar hosil bo'lgan qarzdorlik, avans summasi, qayta ulov uchun to'lov summasi, davlat boji, jarima, penya hamda pochta xarajatlarini majburiy undirish to'g'risida tegishli sudga da'vo arizasi kiritilishini ma'lum qilamiz. Qarzdorlik uchun tarmoqdan o'chirilganda kelib chiquvchi turli oqibatlar uchun javobgarlik qarzdor iste'molchi zimmasida qoladi.

Mazkur ogohlantirish asosiy shartnomaning ajralmas qismi hisoblanib 31.12.202_ yilga qadar amal qiladi.

Iste'molchi:

Sotuvchi korxona:

M.O': (Imzo)

(F.I.SH.)

M.O': (Imzo)

(F.I.SH.)

E S L A T M A !!!

Elektr energiyasi iste'molchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdag'i "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-4422-sonli** qarori, 2022-yil 9-sentabrdagi "Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PF-220-son** Farmoni hamda 2024-yil 14-iyundagi "Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-222-son** qaroriga asosan energiya samaradorligi loyihalari-energiya tejamkor texnologiyalar va energiya tejamkor uskunalarini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish orqali obektning energiya sarfini **20 foizga** kamaytirish choralarini ko'rib borishlari lozim.